

HEMINGUEYNING “CHOL VA DENGIZ” ROMANIDAGI CHOL KONSEPTI TAHLILI

Hasanov Husniddin Kamol o‘g‘li

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи
o‘qituvchisi*

hasanovhusniddin1704@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik, uning o‘rganish doirasi, jumladan, Hemingueyning “Chol va dengiz” romanida “chol” konseptining lingvokognitiv tahlili ifodalangan.

Kalit so‘zlar: qissa, konsept, obraz, olamning lisoniy manzarasi, borliq, ramz.

Insoniyat tarixiga teran nazar tashlar ekanmiz, Alloh taolo har bir bandaning taqdirini go‘zal rizq-u nasiba, jozibali umr, ibratli hayot bilan bezab qo‘yanligini, bandayi ojiz ana shu berilgan birgina umri davomida o‘zligini anglagani sayin tobora mukammallikka intila borishini his etamiz. Ana shunday metin iroda bilan hayotning g‘alvalarida oqib ketayotgan umrning sargashtaligi har bir inson ma’naviy-ruhiy hayotida katta burilishlar yasashiga, ko‘pchilik oldida izza bo‘lmaslikka, komillik bilan kamolot pillapoyalariga chiqib olishiga rag‘bat uyg‘otadi. Insonning ma’naviy-ruhiy olami butun bo‘lmas ekan, uning qilayotgan moddiy dunyodagi hech bir ishi tarixda qoladigan buyuk ishlar qatoriga kirmaydi. Inson borki, adashishlar, yo‘qotishlar, xiyonatlar va og‘riqlar orasida katta bo‘ladi, Alloho tanib, uning sifatlariga munosib hayot kechirish payida bo‘ladi. Mukammal insonning o‘zi yo‘q, bo‘lmagan, mukammallik faqat Allohgagina xos bo‘lsa, bandayi ojiz ana shu balandlik sari talpinib yashashi lozimligi yanada ayonlashadi. Bir umr “**Insonni yanchish mumkin, ammo uni yengib bo‘lmaydi!**” deya iztirob bilan ijod qilgan katta iste’dod sohibi, Nobel mukofoti laureati amerikalik yozuvchi Ernest Hemingueyning butun boshli ijodida konceptual mohiyat – inson irodasini sinovdan

o‘tkazadigan HAYOT FORMULAsini qayta kashf qilishga qaratilgani bilan tahsinga sazovordir!

Yozuvchi 1951-yilda “Chol va dengiz” qissasini yozarkan, bu asar unga Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdek baxtni keltiradi. Asarning mohiyatidagi ramzlar, detallar va voqeliklar sintezi har bir inson yaratilganidan boshlab, Alloho ni tanishi, e’tiqodi va maslagi butun bo‘lishi, iymoni kuchli bo‘lishi xususida so‘z boradi.

Yozuvchi va munaqqid Nazar Eshonqul “Chol va dengiz” asari haqida shunday e’tirof etadi: “Asarni hikmat-qissaga – hayot haqidagi hikmatga, hikmat-timsolga aylantirishga urindi, buning uddasidan chiqdi ham. Asar chinakam hikmatga aylandi. Asar syujeti “Bibliya” hikmatlari bilan hamohang. Baliqchiga shogird tushgan bolaning ismi – Manolin. Bu ism “Bibliya”dagi Emmanuel, ya’ni Iso payg‘ambar ismining qisqargan va zamonaviylashgan shaklidir. Santyago ismi esa o‘z taqdirini yaratishga kirishgan va shu sababli o‘z peshonasiga bitilganlarga qarshi isyon qilgan “Bibliya”dagi Yakovning ispancha nomlanishidir. Qariya ovga chiqadigan ummon – ma’naviy, ruhiy dunyoning, qolaversa, insoniyat yashayotgan va o‘z rizqi hamda o‘rnini topishga urinayotgan bepoyon olamning timsoli. Ana shu ulkan bo‘shliq va kenglik ichida odam o‘zini, o‘zligini topishi, taqdirini yaratishi, orzusiga erishishi, bu kenglikni o‘ziga bo‘ysundirishi, shu yovvoyilik, bo‘shliq, umidsizlik ichida Yaratganning ruhini, Tangrining tajassumini topa olishi va uni o‘ziniki qilishi kerak. Baliq obrazi birinchi qarashda faqat baliq, ammo hikmat nuqtayi nazaridan olinsa, bu obraz insonning ichida bo‘y ko‘rsatadigan Yaratganning qiyofasi, Xudoga bo‘lgan ishonch va e’tiqod timsolidir. Agar inson tiriklik kengligi va ummonida o‘zini topolmasa, unda yashashdan va hayotdan hech qanday ma’no yo‘q. Inson ana shu bo‘shliqdan, ana shu yovvoyi qonunlar hukm suradigan ummondan o‘z ulushini ajratib olishi, beedad kenglik va yovvoyilikdan ma’nana, ruhan ustun bo‘lishi, ummonni o‘zining matonati bilan yengishi kerak. Santyagoni boshqalar kabi mayda-chuyda, faqat qorin to‘yg‘izadigan baliqlar – kichkina ulushlar qiziqtirmaydi. U ulkan baliqni, ulkan ulushni ko‘zlab ovga chiqqan. Parchalangan shaxs bo‘lishni istamaydi, butun shaxs bo‘lish niyatida. Shuning uchun boshqalar hali tutolmagan baliqni tutishga intiladi. Asarning

mohiyati ham shunda”¹. Ko‘rinadiki, qissaning syujeti va kompozitsiyasidagi har qanday voqelik mohiyatida INSON irodasi va MATONATI uyg‘unlashuvi, ana shu ikkilikning ajralmas halqa ekanligini tushuntirishdan iboratligi yorqin ranglarda badiiy inkishof qilinadi.

Olamning lisoniy manzarasi – konseptida chol, qariya fenomeni turarkan, nega yozuvchi umri davomida bosib o‘tayotgan yo‘li, hayoti va intilishlarini birgina chol nomi ostiga ramzlar, shtrixlar, metaforalarga burkagan holda “yashirish”ga harakat qiladi? Bu ham umuminsoniy savollar sirasiga kiradi. Adib o‘zini hech qanday qiyinchiliklardan nari tutmaydi. Ayniqsa, urush va uning dahshatli manzaralari, aniqrog‘i urush ichida kechgan umri davomida asl haqiqatni butunicha ochib berishga bel bog‘laganligida ko‘rinadi. Ana shu konsept – yozuvchi ijodining eng katta cho‘qqisi, balandligi deyishimiz mumkin:

“Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to‘rt kun ham to‘ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo‘q. U bilan qirq kun bola birga bo‘ldi. Hadeganda qo‘li quruq qaytavergach, ota-onasi unga endi cholning o‘ta-ketgan Salao, ya’ni “o‘lguday omadi yurishmagan odam” ekanini aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqish kerakligini qulog‘iga quydilar. Haqiqatan ham birinchi haftaning o‘zidayoq bu qayiqda baliq desa arziguday uchta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotganligini ko‘rib bola ich-ichidan ezilar edi. U cholning uskunalari, changak, garpun va machtaga o‘ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg‘oqqa kelardi. Dag‘al matodan to‘qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo‘lib ketgan, o‘rog‘liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o‘xshardi. Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o‘tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo‘ladigan beozor teri rakining jigar rang dog‘lari bilan qoplangan edi. Dog‘lar cho‘zilib gardanigacha tushgan, yirik baliq-larni tortib olayotganda, chizimchalar o‘yib yuborgan qo‘llarida chuqur chandiq izlari ko‘rinardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo‘q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko‘hna edi. Cholda nimaiki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat

¹ Назар Эшонқул. “мен”дан менгача. – Тошент, Академнашр. 2014. – Б.490.

den- giz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zlar bundan mustasno edi”².

Qissada yozuvchi nega chol obrazini tanlagan? Bu yerda bir-birini to‘ldiruvchi qavat-qavat ramzlar borki, ayni paytda, yozuvchi ana shu ramzlarni: Bibliya, ya’ni Iso payg‘ambarning xochga mixlanishi, odamning Alloh oldidagi iymoni ko‘zga ko‘rinmasligi, uni isbotlashga harchand urinilmasin, tasavvur ham qilolmasligimizni dalolatlaydi. Aynan, Santyago bilan bolaning o‘zaro ruhiyatida kechadigan o‘ziga xosliklar har bir o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Chol qissa arixtektonikasida quyidagi tasnidida harakatlanib, o‘zini taftish va tahlil qiladi:

1. Alloh bu dunyoni INSON uchun yaratganligi, Odam Ato va Momo havoning ta’qiq mevasini yeb jannatdan chiqarilishiga ishora mavjud.

2. Iso payg‘ambarrninng xochga mixlanishi, butun azob-uqubat yer yuzida sodir bo‘lib, tavba va tazarru qilgan, e’tiqodi butun bo‘lgan odamning ruhini hech narsa yengib bilmasligiga olib boruvchi modusga diqqat qaratilgan.

3. Chol hayoti davomida o‘zining barcha ezgu amallari, bilib-bilmay qilgan gunohlari, yashashdan eng asosiy maqsadi nima ekanligini bilib o‘tish tushunchalar konseptini jilvalantiradi.

4. Manolin asarda – cholning iymoni vva e’tiqodi ramzi. U shu bolaning alqu tafakkuridagi o‘sish-o‘zgarishlardan ilhomlanadi. Yashashga kuch va qudrat topadi. Uning cholni tanqid qilishlari natijasida yayangi-yangi semalar yuzaga keladi.

5. Odamzod kim va qanday hayot kechirmasin, bu dunyo uunga sinov uchun berilganini, oldidagi xavflar, xatarlar nechog‘il irodani bukib, yanchib, chavaqlab tashlamasin, oxrida chinakam kuchli va o‘ziga ishongan odamgina bundan osonlikcha chiqib olishi mumkin degan katta umuminsoniy g‘oya o‘zininng ifodasini topadi.

Ernest Hemingueyninng “Chol va dengiz” qissasida makon bilan bog‘liq uslubiy-shakliy xususiyatlar hamisha o‘zining teran falsafy-estetik kategoriya ekanligini dalolatlaydi. Shuningdek, qissadagi eng muhimjihatlar makonda ro‘y beradi. XX asrning

² Хемингуэй Э. Чол ва денгиз. – Тошкент, Янги аср авлоди. 2019. – Б.4.

boshlarida boshlangan adabiy xronotopni ilk bor M.Baxtin istiloh sifatida antik yunon adabiyotidagi ritsarlik romanlar, dramalar, tragediyalar negizida talqin qilgan. Keyinchalik o‘zbek adabiyotining turli janrlarida yangicha qiyofada bo‘y ko‘rsata boshladi. Ayniqsa, ramziy-majoziy qissalar badiiyatida alohida mavqe kasb etishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ефимов А.И. Об изучении языка художественных произведений. М.: 1952, С. 63.
2. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Т: “Ўзбекистон”. 1992. -Б.36.
3. М.Содиқова. Русча-ўзбекча фразеологик луғат. Тошкент: 1993. – Б. 4.
4. Юлдашев А.Г.Кўчма маъноли сўзларда когнитив механизmlарнинг ўрни // —Ўзбекистонда хорижий тиллар‖ илмий-методик электрон журнал journal.fledu.uz № 3/2019. – Б.60.
5. Назар Эшонқул. “мен”дан менгача. – Тошент, Академнашр. 2014. – Б.490.
6. Хемингуэй Э. Чол ва денгиз. – Тошкент, Янги аср авлоди. 2019. – Б.4.